

**NIZOMIY NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY PEDAGOGIKA
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.01.2020.Ped.26.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH
O‘ZBEKISTON MILLIY PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**

XOLBOZOROVA NASIBA XOLBOZAR QIZI

**DIFFERENSIAL YONDASHUV ASOSIDA ONA TILI TA’LIMIDA
TALABALARNI O‘QUV-BILISH KOMPETENSIYALARINI
RIVOJLANTIRISH METODIKASI
(boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi misolida)**

13.00.02 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (pedagogika fanlari)

**PEDAGOGIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

**Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
педагогическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on pedagogical
sciences**

Xolbozorova Nasiba Xolbozar qizi

Differensial yondashuv asosida ona tili ta'limida talabalarni o'quv-bilish kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasi (boshlang'ich ta'lim yo'nalishi misolida).....3

Холбозорова Насиба Холбозар кизи

Методика развития учебно-познавательных компетенций студента родном обучении на основе дифференцированного подхода (на примере начального образования).....23

Kholbozorova Nasiba Kholbozar kizi

Methodology for the development of educational and cognitive competencies of a student in native education based on a differentiated approach (using the example of primary education)45

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ

List of published works.....49

**NIZOMIY NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY PEDAGOGIKA
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.01.2020.Ped.26.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

O‘ZBEKISTON MILLIY PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

XOLBOZOROVA NASIBA XOLBOZAR QIZI

**DIFFERENSIAL YONDASHUV ASOSIDA ONA TILI TA’LIMIDA
TALABALARNI O‘QUV-BILISH KOMPETENSIYALARINI
RIVOJLANTIRISH METODIKASI
(boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi misolida)**

13.00.02 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (pedagogika fanlari)

**PEDAGOGIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.4.Phd/Ped8828 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya O‘zbekiston milliy pedagogika universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus va ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb sahifasi (www.tdpu.uz) hamda “ZiyoNet” Axborot-ta’lim portalida (www.ziynet.uz.) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Raximov Zokir Toshtemirovich
pedagogika fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Hakimova Muhabbat Fayzievna
pedagogika fanlari doktori , professor

Saidova Mohinur Jonpo‘latovna
pedagogika fanlari doktori, professor.

Yetakchi tashkilot:

Guliston davlat universiteti.

Dissertatsiya himoyasi O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti huzuridagi DSc.03/30.01.2020.Ped.26.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025 yil “___” _____ kuni soat ____ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (manzil: 100185, Toshkent shahri, Chilonzor tumani, Bunyodkor ko‘chasi, 27-uy Tel.: (99871) 276-79-11; faks (99871) 276-76-51; e-mail: tdpu_kengash@edu.uz)

Dissertatsiya bilan O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti axborot-resurs markazida tanishish mumkin (_____) raqam bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 100185, Toshkent shahri, Chilonzor tumani, Bunyodkor ko‘chasi, 27-uy Tel.: (99871) 276-79-11; faks (99871) 276-76-51.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil “___” _____ da tarqatildi

(2025-yil “___” _____ dagi _____ raqamli reyestr bayonnomasi)

Z.N.Mamarajabova,
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash raisi, p.f.d., professor

R.T.Isyanov,
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash ilmiy kotibi, p.f.n., dotsent

M.E.Mamarajabov,
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash qoshidagi ilmiy seminar
raisi, p.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon tajribasida differensial yondashuv asosida ona tili ta'limida talabalarning kognitiv kompetensiyalarini rivojlantirish metodikalarini takomillashtirishning kreativ texnologiyalari amaliyotga tadbiiq etilmoqda. 1998-yildagi Parij deklaratsiyasi – “Oliy ta'limning XXI asrga qarab rivojlanishi to'g'risidagi Jahon deklaratsiyasi”da oliy ta'lim ochiqligini ta'minlash, ta'lim sifatini takomillashtirish, talabalarni ta'lim jarayonining faol ishtirokchisiga aylantirish, mustaqil ishlar samaradorligini oshirish, turli xil kutilmagan kasbiy vaziyatlarda muammolar yechimini topa olish, ta'lim jarayoniga differensial yondashuv prinsiplarini tadbiiq etishga qaratilgan tizimli ishlar olib borilmoqda.

Jahon ta'lim tizimida talabalarning intellektual qobiliyat va ta'limiy qarashlarni rivojlantirish, talabalarning o'quv-bilish kompetensiyalarini rivojlantirishga qaratilgan differensial yondashuvni amalga oshirish, motivatsiyasi va qobiliyatini, ijodiy fikrlaydigan shaxsni shakllantirishga yo'naltirilgan pedagogik faoliyatga tayyorlash jarayonida ta'lim samaradorligini oshirishning istiqbolli yo'nalishlarini yangilash bo'yicha ilmiy tadqiqot olib borilmoqda, ta'lim mazmunini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish, ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarini barqaror rivojlantirish, mehnat bozorida o'z o'rnini topa oladigan yuqori malakali kadrlarni tayyorlash zamonaviy ta'limda yuqori texnologiyalar doirasida har bir talaba shaxsining qobiliyatini ochib berish, hayotga va kasbiy faoliyatga tayyorlash, raqobatbardosh kadrlarni dunyo maydoniga chiqarish bo'yicha tadqiqotlar ham olib borilmoqda.

Respublikamizda pedagogik tajribalarga ko'ra, amalga oshirilayotgan ilmiy tadqiqot sifatini ko'tarish va amaliyotga keng joriy etish, Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabalariga kasbiy muhim sifatlarini shakllantirish, tezkorlik, shiddatli o'zgarishlarga qisqa muddatlarda samarali moslashish, bilimlarni faol singdirish, yangiliklar bilan izchil tanishtirib borishning me'yoriy asoslari yaratilmoqda. Yoshlar uchun ochiq va sifatli ta'limni ta'minlash, ta'limning barcha bosqichlarida yoshlarning mukammal ta'lim olishga yo'naltirish ustuvor etib belgilangan. Jumladan, “Ta'lim tashkilotlarida davlat tilini o'qitish tizimini yanada takomillashtirish, uning ilm-fan tili sifatidagi nufuzini oshirish, fuqarolarning ona tilida ta'lim olish imkoniyatini ta'minlash darajasini oshirish”¹ kabi ustuvor vazifalar belgilandi. Mazkur vazifalar ona tili ta'limida talabalarning o'quv-bilish kompetensiyalarini rivojlantirishga qaratilgan oliy ta'lim muassasalari faoliyatining sifati hamda samaradorligini oshirishda ilmiy-tadqiqot va innovatsiya faoliyatini rag'batlantirish, ilmiy va innovatsiya yutuqlarini amaliyotga joriy etishning samarali mexanizmlarini takomillashtirishning imkoniyatlarini kengaytiradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son “O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida”gi, 2020-yil 20-oktabrdagi PF-6084-son

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 20-oktabrdagi” 2020 — 2030-yillarda o'zbek tilini rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish KONSEPSIYASI“ PF-6084-son Toshkent sh.,2020-yil 20-oktabr,PF-6084-son

“Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risidagi, 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son «O‘zbekiston - 2030» strategiyasi to‘g‘risidagi Farmonlari, 2024-yil 30-sentabrdagi PQ-345-son “O‘zbekiston Respublikasi milliy malaka tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2022-yil 21-iyundagi PQ-289-son “Pedagogik ta’lim sifatini oshirish va pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta’lim muassasalari faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot ishi respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning I. «Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirishda, innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari» ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Oliy ta’limda talabalarning kasbiy tayyorgarligini takomillashtirish, o‘quv-bilish kompetensiyalarini rivojlantirish, B.S.Abdullayeva, N.D.Botirova, R.X.Djurayev, R.G.Isyanov, X.I.Ibragimov, N.A.Muslimov, M.F.Qurbonova, Z.T.Raximov, L.R.Rajabova, E.G‘oziyev, M.E.Xaydarov, B.X.Xodjayev, M.F.Xakimova, A.A.Xalikov va R.D.Shodiyevlar, boshlang‘ich ta’limni tashkil etish, ona tili ta’limini takomillashtirish A.R.Hamroyev, G‘.H.Hamroyev, M.A.Jumayeva, M.M.Mirqosimova, U.Masharipova, S.Matchonov, Sh.U.Nurullayeva, K.Qosimova, Y.A.Po‘lotova, F.R.Teshaboyeva, M.Y.To‘raboyeva va M.J.Shodiyevalar tomonidan tadqiq qilingan.

Mustaqil davlatlar hamdo‘stligi mamlakatlarida ta’limga differensial yondashuv, talabalarning kompetensiyalarni rivojlantirish I.G.Aktamov, V.A.Adolf, O.A.Anisimova, I.L.Dulchayeva, X.Fonteyn, M.Konnor, I.I.Lavashova, I.Y.Ladoxina, N.N.Lukovnikov, I.A.Mixaylova, R.L.Marsiya, G.Madlen, V.A.Nikolayev, V.A.Slastenin, K.Tomlinson, S.G.Vorovshikov, L.S.Vigotskiy, A.V.Xutorskoy, G.G.Yerkibayeva, A.I.Zabaluyeva, V.I.Zagvyazinskiy, N.A.Zvereva va E.F.Zeyerlar tadqiqot ishlari olib borganlar.

Kompetent mutaxassis va didaktik-metodik kompetensiyani rivojlantirish, differensial yondashuv muammolari yuzasidan V.Argyropoulos, S.Arkoudis, R.Arum, J.Burkett, M.Bhowmik, E.Clinchy, B.D.DeBaryshe, P.Dimitropoulou, I.Fykaris, M.Fullan, M.Gelastopoulou, E.Hudson, D.Kakana, Y.K.Kim, S.Kaldi, A.Mavidou, K.Mamiseishvili va T.Martonlar tomonidan tadqiq etilgan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Toshkent davlat pedagogika universiteti ilmiy tadqiqot rejasining “Pedagogik yo‘nalishlar va mutaxassisliklar bo‘yicha ilg‘or pedagogika texnologiyalarini joriy etish, pedagog kadrlarni sifatli tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish, elektron-ta’lim resurslarini yaratish va takomillashtirish,

o'quv jarayoniga zamonaviy pedagogika, multimedia va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish" nomli tadqiqot ishi doirasida bajarilgan (2020-2024-yillar).

Tadqiqotning maqsadi differensial yondashuv asosida ona tili ta'limida talabalarni o'quv-bilish kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

talabalarni kasbiy-pedagogik faoliyatga tayyorlash jarayonida o'quv-bilish kompetensiyalarini rivojlantirishning didaktik imkoniyatlarini aniqlashtirish;

differensial yondashuv asosida ona tili ta'limida talabalarni o'quv-bilish kompetensiyalarini rivojlantirish modelini takomillashtirish;

differensial yondashuv asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ona tilini ta'limida o'quv-bilish kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish;

differensial yondashuv asosida ona tili ta'limida talabalarni o'quv-bilish kompetensiyalarini rivojlantirish samaradorligini aniqlash.

Tadqiqot obyekti sifatida differensial yondashuv asosida ona tili ta'limida talabalarni o'quv-bilish kompetensiyalarini rivojlantirish modelini takomillashtirish jarayoni bo'lib, tajriba-sinov ishlari Shahrisabz davlat pedagogika instituti, Termiz davlat pedagogika instituti hamda Urganch davlat pedagogika institutlarida amalga oshirilgan va ushbu jarayonda 206 nafar talaba ishtirok etgan.

Tadqiqot predmetini differensial yondashuv asosida ona tili ta'limida talabalarni o'quv-bilish kompetensiyalarini rivojlantirish metodlarini takomillashtirishning shakl, metod va vositalari tashkil etadi.

Tadqiqot usullari. Tadqiqotda mavzuga oid ilmiy manbalar, didaktik materiallar, DTS, o'quv reja va dasturlari, o'quv-me'yoriy hujjatlar, darslik va o'quv-metodik adabiyotlarni o'rganish va tahlil qilish, suhbat, pedagogik kuzatish, anketa, test, loyihalash, modellashtirish, ekspert baholash, pedagogik tajriba-sinov; psixodiagnostika, tadqiqot natijalarini matematik-statistik qayta ishlash metodlaridan kompleks foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

talabalarni kasbiy-pedagogik faoliyatga tayyorlash jarayonida o'quv-bilish kompetensiyalarini rivojlantirishning didaktik imkoniyatlari differensial yondashuvga asoslangan vazifalarni shakllantirish, motivatsion, emotsional, ijodiy fikrlash, metakognitiv, mobil va onlayn platformalarda individualizatsiyalashtiril-gan ta'lim muhitiga moslashtirish hamda moslashuvchan, ijtimoiy o'rganish, fleksibil ta'lim, pedagogik mentorlik, inklyuziv ta'lim sharoitlarini ta'minlash asosida aniqlashtirilgan;

differensial yondashuv asosida ona tili ta'limida talabalarni o'quv-bilish kompetensiyalarini rivojlantirish modeli yondashuvning muhim tarkibiy pedagogik ijtimoiy, ma'naviy, ma'rifiy va texnologik kompetensiyalarga semantik bog'liqligini ta'minlash, hamda fanga oid kompetensiyalarni didaktik shart-sharoitlar, texnologiyalar va vositalarga uyg'unlashtirish asosida takomillashtirilgan;

bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining o'quv-bilish kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasi ona tili ta'limida bilim, ko'nikma, malakalarni kasbiy-shaxsiy rivojlantirish, o'quv mashg'ulotlari va mustaqil ta'limni ijodiy faollashtirishda qo'llash hamda tahlil, sintez va o'z fikrini ishonchli bayon etishga oid o'quv-bilish kompetensiyalarini tizimlashtirish asosida takomillashtirilgan;

differentzial yondashuv asosida ona tili ta'limida talabalarni o'quv-bilish kompetensiyalarini rivojlantirish samaradorligi baholashning diagnostik radikal, kombinativ, refleksiv mezonlarini baholash darajalariga dinamiklashgani ta'minlash hamda tanqidiy fikrlash qobiliyatlari rivojlanganligini faktik aniqlashtirish asosida takomillashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat.

pedagogika oliy ta'lim muassasalari boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabalarining o'quv-bilish kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiladigan "Ona tili o'qitish metodikasi" (Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2025-yil 14-aprel 136-son buyruq) darsligi va "Mutaxassislikka kirish" (Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 4-martdagi "55"-son buyruq) nomli o'quv qo'llanmalar tayyorlangan;

ona tili ta'limida boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabalarining o'quv-bilish kompetensiyalarini rivojlantirishga qaratilgan "Forkompet texnologiyasi" (2024-yil 11-noyabr № 008079), "Ansenjanlev texnologiyasi" (2024-yil 11-noyabr № 008080) kabi innovatsion ta'lim texnologiyalari ishlab chiqilgan hamda mazkur texnologiyalarga O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi "Intellektual mulk markazi" davlat muassasasi tomonidan mualliflik guvohnomasi berilgan;

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi qo'llanilgan yondashuv, usullar va nazariy ma'lumotlarning rasmiy manbalardan olingani, keltirilgan tahlillar va tajriba-sinov ishlari samaradorligining matematik-statistik metodlari vositasida asoslanganligi, xulosa, taklif va tavsiyalarining amaliyotda joriy etilganligi, olingan natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati oliy ta'limning boshlang'ich ta'lim bakalavr yo'nalishi talabalarini differentzial yondashuv asosida ona tili ta'limida o'quv-bilish kompetensiyalarini rivojlantirish mexanizmi mohiyati, pedagogik imkoniyatlari, nazariy-metodik asoslari va oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari tayyorlashni takomillashtirishning samarali imkoniyatlari, shakllari, metod va texnologiyalari, vositalari yaratilganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati oliy ta'limda boshlang'ich ta'lim bakalavr yo'nalishi talabalarining o'quv-bilish kompetensiyalarini rivojlantirish mexanizmi takomillashtirilganligi, ona tilini o'qitish jarayonida boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabalarining o'quv-bilish kompetensiyalarini rivojlantirishga doir amaliy-metodik tavsiyalarni ishlab chiqilganligi hamda erishilgan natijalar oliy ta'lim muassasalarida boshlang'ich ta'lim yo'nalishiga o'qitiladigan ona tili o'qitish metodikasi fanini o'zlashtirishda samarali natijalar qo'lga kiritilishiga xizmat qilishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Differensial yondashuv asosida ona tili ta'limida talabalarni o'quv-bilish kompetensiyalarini rivojlantirishga oid olingan ilmiy natijalari asosida:

talabalarni kasbiy-pedagogik faoliyatga tayyorlash jarayonida o'quv-bilish kompetensiyalarini rivojlantirishning didaktik imkoniyatlari differensial yondashuvga asoslangan vazifalarni shakllantirish, motivatsion, emotsional, ijodiy fikrlash, metakognitiv, mobil va onlayn platformalarda individualizatsiyalash-tirilgan ta'lim muhitiga moslashtirish hamda moslashuvchan, ijtimoiy o'rganish, fleksibil ta'lim, pedagogik mentorlik, inklyuziv ta'lim sharoitlarini ta'minlash asosida aniqlashtirishga oid takliflar "Mutaxassislikka kirish" nomli o'quv qo'llanmasida foydalanilgan. Natijada, differensial yondashuv jarayonida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining o'quv-bilish kompetensiyalarini rivojlantirishga erishilgan;

differensial yondashuv asosida ona tili ta'limida talabalarni o'quv-bilish kompetensiyalarini rivojlantirish modeli yondashuvning muhim tarkibiy pedagogik ijtimoiy, ma'naviy, ma'rifiy va texnologik kompetensiyalarga semantik bog'liqligini ta'minlash, hamda fanga oid kompetensiyalarni didaktik shart-sharoitlar, texnologiyalar va vositalarga uyg'unlashtirish asosida takomillashtirishga oid takliflar "Mutaxassislikka kirish" nomli o'quv qo'llanmasida foydalanilgan. Natijada, differensial yondashuv jarayonida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining o'quv-bilish kompetensiyalarini rivojlantirish samaradorligi oshgan;

bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining o'quv-bilish kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasi ona tili ta'limida bilim, ko'nikma, malakalarni kasbiy-shaxsiy rivojlantirish, o'quv mashg'ulotlari va mustaqil ta'limni ijodiy faollashtirishda qo'llash hamda tahlil, sintez va o'z fikrini ishonchli bayon etishga oid o'quv-bilish kompetensiyalarini tizimlashtirish asosida takomillashtirishga oid takliflar "Mutaxassislikka kirish" nomli o'quv qo'llanmasida foydalanilgan. Natijada, differensial yondashuv jarayonida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining o'quv-bilish kompetensiyalarini rivojlantirishning didaktik mazmuni boyitilgan;

differensial yondashuv asosida ona tili ta'limida talabalarni o'quv-bilish kompetensiyalarini rivojlantirish samaradorligi baholashning diagnostik radikal, kombinativ, refleksiv mezonlarini baholash darajalariga dinamiklashgani ta'minlash hamda tanqidiy fikrlash qobiliyatlari rivojlanganligini faktik aniqlashtirish asosida takomillashtirishga oid takliflar "Mutaxassislikka kirish" nomli o'quv qo'llanmasida foydalanilgan. Natijada talabalarning o'quv-bilish kompetensiyalari, ijodiy va tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 2 ta respublika va 2 ta xalqaro ilmiy-amaliy anjumanda muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 11 ta ilmiy ish, jumladan, Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 5 ta maqola, shundan, 3 tasi respublika va 2 tasi xorijiy jurnallarda chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat bo'lib, asosiy matn 131 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida tadqiqotning dolzarbligi va zarurati asoslangan, maqsadi va vazifalari, obyekti va predmeti aniqlangan, ishning fan va texnologiyalarni rivojlantirishning muhim yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan. Tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari, natijalarning ishonchliligi, nazariy va amaliy ahamiyati, amaliyotga joriy etilishi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Differensial yondashuv asosida ona tili ta’limida talabalarni o‘quv-bilish kompetensiyalarini rivojlantirishning ilmiy-nazariy asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida talabalarni o‘quv-bilish kompetensiyalarini rivojlantirishning pedagogik zaruriyati, ona tili ta’limida talabalarni o‘quv-bilish kompetensiyalarini rivojlantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari, differensial yondashuv ona tili ta’limida talabalarni o‘quv-bilish kompetensiyalarini rivojlantirish vositasi sifatida bir qancha ma’lumotlar keltirilgan.

Pedagog olim N.A.Muslimovning fikricha, o‘quv-bilish kompetentligi, bu talabaning o‘rganilayotgan aniq obyektlar bilan bog‘liq mantiqiy, metodologik va ijtimoiy faoliyat elementlaridan iborat bo‘lgan mustaqil fikrlash kompetentliklarining to‘plami bo‘lib, unga maqsadni ko‘ra bilish, faoliyatni rejalashtirish, uning mazmunini tahlil qilish, refleksiya, faoliyatga shaxsiy baho berish borasidagi bilim va malakalar kiradi. O‘rganilayotgan obyektlarga nisbatan talabalarni kreativ ko‘nikmalari, ya’ni bilimlarni bevositaborliqdan olish, nostandart vaziyatlarda muammoni hal etishning harakat usullari va evristik metodlarini egallaydi.

O‘quv-bilish kompetentligi talabaning mustaqil bilish faoliyati sohasidagi, shu jumladan, mantiqiy, uslubiy, umumiy o‘quv faoliyati elementlari, haqiqiy kognitiv obyektlar bilan bog‘liq bo‘lgan kompetentliklar majmui sifatida qaraladi. Bunga o‘quv-bilish faoliyatini maqsad qilib qo‘yish, rejalashtirish, tahlil qilish, aks ettirish, o‘z-o‘zini baholash bilim va ko‘nikmalari kiradi. Talaba produktiv faoliyat, voqelikdan bevosita bilim olish, nostandart vaziyatlarda harakat usullarini, masalalar yechishning evristik usullarini o‘zlashtirish bo‘yicha ijodiy ko‘nikmalarni egallaydi. Bu kompetentlik doirasida tegishli funksional savodxonlik talablari aniqlanadi: dalillarni spekulyatsiyadan ajrata olish, o‘lchash ko‘nikmalariga ega bo‘lish, ehtimoliy, statistik va boshqa bilish usullaridan foydalanish hisoblanadi.

O‘quv-bilish kompetentligini rivojlantirish mezonlari quyidagi ko‘nikmalarga ega bo‘ladi: aniq maqsadni o‘z oldiga qo‘yish va maqsadga erishishni bilish qobiliyatini tashkil qilish; bilish vazifalarni shakllantirish va farazlarni ilgari surish; o‘quv-bilish faoliyatini tahlil qilish, mustaqil bilim olish; o‘quv-bilish faoliyatini aks ettirish; o‘quv-bilish faoliyatida o‘z-o‘ziga baho berish; tadqiqot natijalarini og‘zaki, yozma (grafik) shaklda taqdim etish.

G.G.Yerkibayevaning ta’kidlashicha, ta’limga differensial yondashuv-bu ta’lim jarayonida har bir o‘quvchining individual imkoniyatlari, qobiliyatlari, qiziqishlari va o‘rganish sur’atlarini hisobga olgan holda o‘qitish strategiyasini ishlab chiqishdir. Bunday yondashuv ta’limning samaradorligini oshirishga, har bir o‘quvchining o‘z qobiliyatlari doirasida eng yuqori natijalarga erishishiga yordam beradi.

N.A.Zvereva differensial yondashuvning asosiy shakllari – o‘quv muassasalarini turli tiplarga bo‘lish, kichik guruhlarga ajratish nazarda tutiladi. Differensial ta‘lim muammosi bir xil hal bo‘lmaydi va qarama qarshiliklarga ega ekanligini ta‘kidlaydi.

Ta‘lim jarayonida differensial yondashuv va an‘anaviy yondashuv ikki turli pedagogik usuldir. Ular o‘rtasidagi farqlar talabalarning individual ehtiyojlarini, qobiliyatlarini va qiziqishlarini hisobga olishda yoki ta‘limning umumiy standartlarga asoslanganligida ko‘rinadi.

An‘anaviy yondashuv ko‘pincha umumiy standartlar, bilim darajasi va testlar orqali baholanadi. Bu yondashuv ta‘limdagi eng an‘anaviy va keng tarqalgan usuldir, lekin u talabalarning individual xususiyatlarini kamroq hisobga oladi.

Differensial yondashuv har bir talabaning individual ehtiyojlari, qobiliyatlari va qiziqishlariga mos ta‘lim berishga qaratilgan. Bu yondashuv talabalarning shaxsiy rivojlanishini ta‘minlaydi va ularning bilim olishdagi motivatsiyasini oshiradi, lekin undan samarali foydalanish uchun ko‘proq vaqt va o‘qituvchining shaxsiy sa‘y-harakatlari talab etiladi.

Differensial yondashuv, ta‘limda talabalarning individual xususiyatlari va qobiliyatlarini hisobga olishga yo‘naltirilgan yondashuv bo‘lib, ona tili ta‘limida ham ushbu yondashuvning psixologik aspektlari muhim ahamiyatga ega. Talabalarning o‘quv-bilish kompetensiyalarini rivojlantirishda differensial yondashuvni qo‘llash, har bir talabaning individual xususiyatlarini, o‘qish uslublarini va psixologik holatlarini hisobga olishni talab etadi. Bu, o‘qish jarayonini samarali tashkil qilish va har bir talabaning imkoniyatlaridan maksimal darajada foydalanish uchun muhimdir. Differensial yondashuvning psixologik asoslari talabalarning individual psixologik xossalari hisobga olishga yo‘naltirilgan. Bu talabalarning qobiliyatlarini, qiziqishlarini va ehtiyojlarini aniqlashni talab qiladi. Quyidagi psixologik omillar bilim va ko‘nikmalarga ta‘sir ko‘rsatishi mumkin: qabul qilish va o‘rganish usullari - har bir talabaning o‘rganishdagi o‘ziga xosligini tushunish, ya‘ni ayrimlar vizual vositalar orqali yaxshiroq o‘rganishsa, boshqalar og‘zaki va amaliy usullar orqali samarali o‘rganishadi; ta‘limdagi motivatsiya - talabalarning o‘qishga bo‘lgan munosabati, qiziqishlari va ixtiyori ularning o‘qish jarayonidagi muvaffaqiyatiga ta‘sir qiladi; talabalarning emotsional holatlari - emotsional qobiliyatlar, stress va anksiyetega nisbatan sezgirlik, o‘quv jarayoniga ta‘sir qilishi mumkin. Talabalarning psixologik barqarorligini ta‘minlash uchun ularga shaxsiy psixologik yordam berish muhimdir.

Differensial yondashuv asosida ona tili ta‘limda talabalarni o‘quv-bilish kompetensiyalari rivojlantirishning psixologik aspektlari talabalarning individual xususiyatlarini, emotsional holatlarini va o‘rganish uslublarini hisobga olishga qaratilgan. Psixologik jihatdan moslashtirilgan o‘quv jarayoni talabalarning faolligini oshiradi, ularning o‘qishga bo‘lgan motivatsiyasini kuchaytirishga va ijodiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi.

Ona tili ta‘limida talabalarni o‘quv-bilish kompetensiyalarini rivojlantirishning psixologik xususiyatlari, talabalarning shaxsiy va affektiv jihatlarini hisobga olishga asoslanadi. Bu xususiyatlar o‘quvchilarning bilish jarayoniga ta‘sir qilib, ularning motivatsiyasini, qiziqishlarini va o‘qishga bo‘lgan munosabatini shakllantiradi.

Differensial yondashuv asosida talabalarning individual psixologik xususiyatlariga mos ta'lim strategiyalarini ishlab chiqish, o'quv-bilish kompetensiyalarini rivojlantirish uchun muhimdir. Talabalarning har birining psixologik xossalari turlicha bo'ladi. Bu xossalari, ularning o'qish jarayoniga bo'lgan munosabatini va kompetensiyalarini shakllantirishda muhim o'rin tutadi. Individual o'rganish qobiliyatlari - talabalarning bilishga bo'lgan yondashuvi, ularning kognitiv (aqliy) qobiliyatlariga, ya'ni e'tibor, xotira, tasavvur va tahlil qilish qobiliyatlariga bog'liq. Masalan, ayrim talabalar vizual vositalar orqali yaxshiroq o'rganishsa, boshqalar audiovizual yoki amaliy tajriba orqali bilim olishda samarali bo'ladilar. Bu holat talabaning individual psixologik xususiyatlarini hisobga olishni talab qiladi. Talabalarning shaxsiy xususiyatlari: Shaxsiyat turlari (ekstravert va introvert, ixtiyor va ijodiy fikrlash qobiliyatlari) o'qish jarayonida samarali muloqotni shakllantirishda muhimdir. Differensial yondashuv har bir talaba uchun ishlashda optimal o'qitish usullarini tanlashni talab qiladi.

Differensial yondashuv asosida ona tili ta'limida talabalarni o'quv-bilish kompetensiyalarini rivojlantirishning didaktik shart-sharoitlari haqida so'z yuritganda, ko'plab pedagogik va didaktik omillar inobatga olinishi lozim. Differensial yondashuv (ya'ni, individual va guruh asosidagi o'qitish) talabalarning shaxsiy xususiyatlarini, ixtiyoriylik darajasini va ta'limga bo'lgan munosabatini hisobga oladi, bu esa ularning o'quv-bilish kompetensiyalarini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega.

Didaktik shart-sharoitlar mohiyati - ta'lim jarayonining samarali va natijali bo'lishini ta'minlaydigan shartlar va omillar to'plamini anglatadi. Bu shart-sharoitlar pedagogik jarayonda talabalarning bilim olish, ko'nikmalarni rivojlantirish va ularning shaxsiy qobiliyatlarini maksimal darajada rivojlantirish uchun zarur bo'lgan barcha imkoniyatlar, resurslar, muhit va usullardir. Bu shart-sharoitlar talabalarning o'quv-bilish kompetensiyalarini rivojlantirish, ularning bilimlarini teranlashtirish va ijodiy, tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Ta'lim jarayonida didaktik shart-sharoitlar yuqori sifatda tashkil etilsa, talabalarning bilim olish jarayoni samarali va foydali bo'ladi.

Differensial yondashuv — bu ta'lim jarayonida talabalarning individual xususiyatlari, qobiliyatlari, qiziqishlari va o'qish darajalarini hisobga olgan holda tashkil etilgan pedagogik yondashuvlar tizimidir. Differensial yondashuv talabalarning shaxsiy ehtiyojlariga mos keladigan o'quv-metodik ishlarni tashkil etish va o'quv jarayonini har bir talabaning imkoniyatlariga moslashtirishga qaratilgan. Ushbu yondashuvning tarkibida bir nechta muhim yondashuvlar mavjud:

Individualizatsiyalashtirilgan ta'lim — differensial yondashuvning asosiy tarkibiy qismi bo'lib, har bir talabaning shaxsiy o'qish ehtiyojlariga va qobiliyatlariga mos ta'lim metodlari va materiallaridan foydalanishni nazarda tutadi. Bu yondashuv talabalarning turli darajadagi bilimlarini va ko'nikmalarini hisobga oladi, ularga individual o'qish rejalarini ishlab chiqishga imkon beradi.

Differensial pedagogik baholash - o'qish jarayonini har bir talabaning shaxsiy xususiyatlarini hisobga olgan holda baholashni o'z ichiga oladi. Baho berishda talabalarning individual rivojlanish darajasi, qobiliyatlari va ishlagan natijalari

hisobga olinadi. Bu yondashuv talabalarining o'qish natijalarini aniq va adolatli baholashni ta'minlaydi.

Mavzuga bog'liq individual ishlar - bu yondashuv talabalarga maxsus topshiriqlar va faoliyatlar taqdim etishni nazarda tutadi, ularning shaxsiy qiziqishlari va o'qish darajasiga mos keladi. Masalan, o'quv materiallarini tanlash, maxsus tadqiqotlar o'tkazish yoki individual projeklarni amalga oshirish talabalarining shaxsiy qobiliyatlari va qiziqishlariga mos bo'lishi kerak.

Moslashgan o'quv materiallari - differensial yondashuvda moslashgan o'quv materiallaridan foydalanish muhim ahamiyatga ega. Bu talabalarining individual ehtiyojlariga moslashgan o'quv-metodik materiallar, resurslar va elektron manbalarni ishlab chiqishni o'z ichiga oladi.

Guruhda ishlash va ijtimoiy o'rganish - guruhda ishlash differensial yondashuvda muhim rol o'ynaydi, chunki u talabalarga bir-biri bilan o'rganish va muammolarni birgalikda hal qilish imkonini beradi.

Fleksibil ta'lim - fleksibil ta'lim talabalarga o'z o'qish jadvalarini mustaqil ravishda tashkil etish imkonini beradi. Bu yondashuv talabalarining o'z vaqtida va turli usullarda o'qishga imkon beradi, shuningdek, ularga turli xil ta'lim shakllari va formatlarini (onlayn, oflayn, gibrid) tanlash imkonini yaratadi. Fleksibil ta'limning asosiy maqsadi talabalarining o'qish tarzini ularning shaxsiy talablari va sharoitlariga moslashtirishdir.

Amaliyot va ko'nikmalarni rivojlantirish - differensial yondashuv talabalarining amaliyot va ko'nikmalarga mos ravishda rivojlanishiga yo'naltirilgan. Talabalarga amaliy mashg'ulotlar, treninglar va laboratoriya ishlari taklif etiladi, bu ularning bilimlarni amaliy holatlarda qo'llash qobiliyatlarini oshiradi.

Pedagogik mentorlik - pedagogik mentorlik talabalarga ularning individual rivojlanishida yordam berish maqsadida amalga oshiriladi. Bu yondashuv talabalarga shaxsiy yordam va ta'lim bo'yicha faol ko'mak berishni o'z ichiga oladi. Pedagog mentor talabalarga ularning o'qish jarayonidagi muammolarini aniqlash, ularga shaxsiy yo'nalishlar va tavsiyalar berish, dasturlar va topshiriqlar orqali ularni samarali o'qishga undash kerak.

Inklyuziv ta'lim - har qanday talabani, ularning har qanday xususiyatlariga qaramay, ta'lim jarayoniga jalb etishni nazarda tutadi. Differensial yondashuvning inklyuziv elementlari talabalarining turli jismoniy, intellektual va ijtimoiy ehtiyojlarini hisobga olib, ularga qulay ta'lim muhitini yaratishni qamrab oladi.

Differensial yondashuv tarkibidagi ushbu yondashuvlar oliy ta'limda talabalarining turli darajadagi bilimlarini, qobiliyatlarini va qiziqishlarini hisobga olib, ta'lim jarayonini har bir talabaning ehtiyojlariga moslashtirishga yordam beradi. Ular talabalarining shaxsiy rivojlanishini, bilim va ko'nikmalarni samarali o'rganishini ta'minlaydi.

Differensial yondashuv asosida ona tili ta'limida talabalarni o'quv-bilish kompetensiyalarini rivojlantirishning ilmiy-nazariy asoslari shuni ko'rsatadiki, ushbu yondashuv har bir talabaning individual xususiyatlari, qobiliyatlari va bilim olishga bo'lgan ehtiyojlarini hisobga oladi. Buning maqsadi — har bir talabaning yagona

ehtiyojlari va ehtiyojlariga mos kelgan ta'limni tashkil etish, ularning o'quv-bilish kompetensiyalarini maksimal darajada rivojlantirishdir.

Dissertatsiyaning **“Differensial yondashuv asosida ona tili ta'limida talabalarni o'quv-bilish kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasi”** deb nomlangan ikkinchi bobida differensial yondashuv asosida ona tili ta'limida talabalarni o'quv-bilish kompetensiyalarini rivojlantirish mazmuni va modeli, Ona tili ta'limida talabalar o'quv-bilish kompetensiyalarini rivojlantirish texnologiyalari, Differensial yondashuv asosida talabalar o'quv-bilish kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasi ishlab chiqilgan va tavsiflangan.

Differensial yondashuv asosida ona tili ta'limida talabalarni o'quv-bilish kompetensiyalarini rivojlantirish ta'lim jarayonida talabalarning individual xislatlarini, ehtiyojlarini va imkoniyatlarini hisobga olgan holda amalga oshiriladi. Bu yondashuv har bir talabaning o'qish darajasini va shunga mos keluvchi ta'lim strategiyalarini belgilashga yordam beradi. Differensial yondashuv asosida talabalarni o'quv-bilish kompetensiyalarini rivojlantirishda, avvalo, har bir talaba uchun individual o'qish yo'llari va metodlari belgilash zarur. Bu yondashuv talabalarning turli xil intellektual, psixoemotsional va ijtimoiy ehtiyojlarini hisobga oladi.

Differensial yondashuvning mazmuni ta'limda talabalarning individual xususiyatlarini va ehtiyojlarini hisobga olgan holda o'qitishni tashkil etishni nazarda tutadi. Bu yondashuv har bir talabaning intellektual, psixoemotsional, fizik va ijtimoiy o'zgarishlariga mos ravishda ta'lim berishni maqsad qiladi. Differensial yondashuv mazmuni ko'p aspektlarga ega bo'lib, ular ta'lim jarayonida talabalarning o'qish va rivojlanish darajasini hisobga olishni, ularga muvofiq o'quv metodikalarini ishlab chiqishni talab qiladi.

Differensial yondashuvning asosiy mazmunlariga: individuallashtirish, talabalarning bilim darajasini hisobga olish, o'qitish usullari va strategiyalarini tanlash, psixologik va emotsional xususiyatlar, guruhli va individual o'qish, fikrlash va mustaqillikni rivojlantirish va masalaga asoslangan o'qitishlar kiradi.

Ona tili ta'limida differensial yondashuv algoritmi — bu talabalarning individual xususiyatlarini, ehtiyojlarini va salohiyatini hisobga olgan holda, ularga mos o'qitish usullari va strategiyalarini ishlab chiqish jarayonini belgilaydi. Differensial yondashuv talabalarning har xil ma'naviy, aqliy va fizik imkoniyatlariga mos ravishda ta'lim berishni maqsad qiladi. Bu algoritm talabalarning o'qish jarayonida samarali bo'lishi uchun zarur bo'lgan har qadamni o'z ichiga oladi. Differensial yondashuv algoritmi talabalarning individual ehtiyojlariga mos ravishda o'qitish strategiyalarini ishlab chiqish va ularga muvofiq o'qitishni ta'minlashga qaratilgan.

O'quv-bilish kompetensiyasi — bu ta'lim jarayonida talabaning bilim, ko'nikma va amaliy qobiliyatlarini shakllantirishga qaratilgan jarayonlarning yig'indisi. O'quv-bilish kompetensiyasi talabalarning o'qish jarayonida qanday bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishini, shu bilan birga, ularning bu bilim va ko'nikmalarni hayotda qo'llash salohiyatini ham nazarda tutadi.

O'quv-bilish kompetensiyasining mazmuni: Bilimlar: Talaba muayyan fan yoki soha bo'yicha umumiy va maxsus bilimlarga ega bo'lishi kerak. Misol uchun, ona tili

ta'limidan talabalar grammatik, leksik, fonetik va sintaksik bilimlarni o'zlashtirishlari kerak. Nazariya va amaliyotning o'zaro bog'lanishi: Talabalar o'rgangan nazariy bilimlarni amaliy hollarda qo'llash qobiliyatiga ega bo'lishi kerak. Masalan, grammatik qoidalarni amaliy yozish va nutqda qo'llash.

Ko'nikmalar: kommunikatsiya va ijodiy ko'nikmalar: Talabalarning nutqini ishlatish, yozish, esse yozish, muammolarni hal qilish va ijodiy fikrlash salohiyatini rivojlantirish. Muammolarni hal qilish va tahlil qilish: talabalar o'qish jarayonida har xil matnlarni tahlil qilish, tushunish va yozgan matnlarni to'g'ri shaklda tuzish ko'nikmalarini rivojlantirishlari kerak.

Ma'naviy va axloqiy kompetensiyalar: axloqiy va ijtimoiy mas'uliyat: talabalarning ma'naviy va ijtimoiy qarorlar qabul qilish qobiliyati. Ularning o'z xalqining, tilining qadriyatlariga bo'lgan ehtiromini va umumiy madaniyatga asoslangan axloqiy qadriyatlarni o'rganish. Ma'naviy bilimlar: talabalarning milliy va umuminsoniy ma'naviy qadriyatlariga hurmatini rivojlantirish va milliy tiliga bo'lgan ehtiromini kengaytirish.


Texnologik kompetensiyalar: yangi texnologiyalardan foydalanish: O'quv-bilish kompetensiyasi talabalarning zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish salohiyatini ham qamrab oladi. Maqsad — talabalarning onlayn manbalardan foydalanish, ma'lumotlarni topish va tahlil qilish qobiliyatlarini oshirish. Interaktiv o'qish usullari: talabalar internet resurslari, elektron kitoblar va multimedia vositalari orqali bilimlarni kengaytirish va o'zlashtirish.

Differensial yondashuv asosida talabalarning o'quv-bilish kompetensiyalarini rivojlantirish, shuningdek, muvaffaqiyatli ta'lim berish uchun turli strategiyalar, masalan, moduldan-o'quv jarayoniga individuallashtirish, qaytarilgan baholarga asoslangan ravishda taklif qilinadigan fikrlarni tanlash va alohida ehtiyojlarga muvofiqlashtirish talab etiladi (1-rasm).

Modeldan maqsad – talabalarning o'zlashtirish darajasini oshirish va ularning ijodiy, kommunikativ, tafakkur va tahlil qilish salohiyatlarini kengaytirish. Bu yondashuv ta'limdagi individuallikni, talabalarning jismoniy, axloqiy va aqliy xususiyatlarini va maqsadga muvofiqligini hisobga olishga asoslangan.

Differensial yondashuv asosida talabalarni o'quv-bilish kompetensiyalarini rivojlantirishda har bir talabalarning individual xususiyatlari ahamiyatlidir. Har bir talabaning aniq ta'limga bo'lgan ehtiyojlari, psixoemotsional holati, yoshi, bilim darajasi va o'qishga bo'lgan qiziqishi tahlil qilinadi. Bu jarayonda so'rovlar, anketa yoki intervyular orqali talabalarning shaxsiy muammolari va qiziqishlari aniqlanadi. Talabalarning ona tiliga oid bilimlari va ko'nikmalari baholanadi. Bu baholash natijalariga ko'ra, talabalarning kompetensiyalarini rivojlantirish uchun individual strategiyalar ishlab chiqiladi.

Differensial yondashuv asosida ona tili ta'limida talabalarni o'quv-bilish kompetensiyalarini rivojlantirish modeli — bu ta'lim jarayonida har bir talabaning individual ehtiyojlariga mos ravishda bilim, ko'nikma va kompetensiyalarini rivojlantirishni maqsad qiluvchi tizimdir. Modelning asosiy maqsadi — talabalarning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda ularning bilim darajasini oshirish va o'quv-bilish kompetensiyalarini takomillashtirishdir.



1-rasm. Differensial yondashuv asosida ona tili ta'limida talabalarni o'quv-bilish kompetensiyalarini rivojlantirish modeli

Talabalarga mos ta'lim maqsadlarini belgilash muhim hisoblanadi. Talabalarining individual ehtiyojlariga asoslanib, ularga mos ta'lim maqsadlari belgilanadi. Masalan, grammatika, nutq, yozish, ijodiy fikrlash kabi sohalarida o'quv maqsadlari aniqlanadi. Talabalarining o'qish usullari (vizual, audiovizual, amaliy) va strategiyalar (interaktiv, mustaqil ishlash, guruhli faoliyatlar) o'rganiladi va o'quv jarayonida samarali bo'ladigan metodlar ishlab chiqiladi.

Innovatsion texnologiyalar talabalarining individual natijalarini kuzatish va baholash imkonini beradi. Onlayn testlar va avtomatik tekshiruv tizimlari orqali talabalarining bilim darajasi tez va aniq baholanadi, bu esa o'qitish jarayonining samaradorligini ta'minlaydi. Hozirgi kunda raqamli ta'lim vositalarining muhim ahamiyati bor. Ta'lim texnologiyasining samaradorligi ta'lim jarayonini yanada effektiv, faol va individuallashtirilgan qilib tashkil qilishga qaratilgan. Buning natijasida talabalarining bilim darajasi oshadi, ularning ijodiy va analitik qobiliyatlari rivojlanadi. Samarali ta'lim texnologiyalarini qo'llash, talabalarni yuqori baholangan bilim va ko'nikmalar bilan ta'minlashga yordam beradi.

Tadqiqot mohiyatiga ko'ra, ona tili ta'limida o'quv-bilish kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiladigan innovatsion ta'lim texnologiyalarini boyitish maqsadida dissertant tomonidan talabalarining o'quv-bilish kompetentligini rivojlantirish imkoniyatini yuzaga keltiradigan quyidagi interfaol metodlar ishlab chiqildi, nazariy jihatdan asoslandi va tajriba asosida amaliyot sinovidan o'tkazildi:

Forkompet texnologiyasi (ingliz tilidagi four competit – o'zbekcha to'rtlik bellashuvi so'zi) — ta'lim jarayonida talabalarining kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qiladigan ta'lim texnologiyasi bo'lib, talaba va o'qituvchi o'rtasidagi faol hamkorlikni, bilimlarni ishlash va fikrlash jarayonini targ'ib qiluvchi, ilg'or ta'lim usulidir. U asosan, talabalarga muammolarni hal qilish, muhokama va tahlil qilish orqali bilim olish imkoniyatini yaratishga qaratilgan.

